

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH
JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Nabiyeva Sayyora Akmaljon qizi

Andijon davlat pedagogika institute,

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14231408>

Annotatsiya. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash o'zining bir qator mezolariga ega.

Ushbu maqolada ham bolalarni jismoniy, aqliy, ruhiy, irodaviy va ma'naviy jihatdan maktabga tayyorlash, ularning maktab ta'limida zo'riqmasligi, ta'limning uzliksizligi va samaradorligini oshirishga asoslanadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, zamonaviy ta'lim, texnologiya, maktabga tayyorgarlik, intellektual salohiyat, estetik ong, jismoniy tayyorgarlik.

Barcha ta'lim turlari singari Respublikamizda ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir qancha islohotlar va rivojlanishlar amalga oshirilmoqda. Endi o'sib rivojlanib kelayotgan yosh avlod uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Zamonaviy jihozlar va yangi o'quv materiallari ta'minlangan maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarni ilimli qilib tarbiyalashga tayyor. Xususan respublikamizda joriy etilgan ta'lim tizimi, uning turlari va shakllari orqali har bir fuqaroning ta'lim olishidagi konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz tomonidan ilmiy sohadagi rivojlanishlar keng qo'llab-quvvatlanib kelinadi.

Ayniqsa, bu o'rinda yosh avlodni kichik yoshdan boshlab sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim tarbiya jarayonida samarali ta'lim-tarbiya shakllarini hamda usullarini joriy etish va shu orqali bolalarni rivojlantirish borasidagi ishlar muhim hisoblanadi.

Jumladan, maktabgacha ta'limda bolani har tomonlama rivojlantirish uning umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlariga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning erta rivojlanishlari ularning kelgusida shaxs bo'lib yetishishida, yetuk kadrlar bo'lishida va kelajakda o'z o'rinlarini topishda juda muhim hisoblanadi. Ayni shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 999-sonli qarorini ijro etish doirasida davlat o'z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga to'lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarliklari bo'yicha majburiyatlarini oladi. 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlarini, bolalarni to'liq kunli maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra bolasini

maktabgacha ta'lim tashkilotiga bermagan ota-onalarning talab va istaklarini qondirishga va istisnosiz barcha bolalarning bilim olishlariga va rivojlanishiga keng imkoniyatlarni yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli farmonida ta'kidlanganidek, maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u bolalarni har tomonlama sog'lom, barkamol va yetuk shaxs qilib tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy dastur va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarda intellektual axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Y.A. Kamenskiy o'zining "Onalar maktabi" kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab, o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.
2. Bolalarga maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.
3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyorlashmoqda? Ota-onalarning ko'pchiligi maktabda yaxshi o'qishining shartlaridan biri shaxsning umumiy rivojlanishi deb hisoblashadi.

Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingi o'rinda bolaning o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlashadi, shuhbatlashishadida, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi. Hammaga ma'lumki, bolalarni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tayyorgarlik darajasiga bog'liq hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda bolalar ko'nikmalarni hosil qiladi, ancha intizomli bo'ladilar, jamoa bo'lib ishlashni o'rganadi, diqqatni bir joyga qarata olish ko'nikmalari rivojlanadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonlarida ularni ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantirib borish zarur.

Shu bilan birga tarbiyachi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi pedagogik sharoitlarni yaratishi lozim. Bolalarni ijodiy faoliyatlarini ishga tushurishimiz uchun ko'proq o'yin faoliyatlaridan foydalanishimiz kerak. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisini kun bo'yi tuzilishi mazmunli, qiziqarli bo'lgan turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Maktabda esa kunning birinchi kunidan tartibli tarzda bo'ladi. Bundan tashqari bolalar kunning ikkinchi qismida ham ma'lum bir vaqtlarini darslarini tayyorlashga ajratadi. Maktabda bola o'z xohishi va qiziqishi bilan tanlagan mashg'ulotlaridan chegaralanadi.

Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga bo'ysunishi kerak bo'ladi. Har qanday ob-havoda ham bola maktabga vaqtida kelishi, o'quv qurollarini olib kelishi, maktab ta'lim sharoitlariga ko'nikishi kerak. Darslarda ma'lum vaqt tinch o'tirib, diqqatni bir joyga jalb qilib ishlashi tanaffusda esa nisbatan qisqa vaqt ichida o'z kuchlarini tiklab olishi kerak boladi.

Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ishlashlari ijobiy natija beradi. Doimo bolani nazoratda bo'lishini ta'minlaydi. Shu orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ularni har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018-yil "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 999-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"
3. PF-5198-sonli farmoni.
4. Y.A. Kamenskiyning "Onalar maktabi" kitobi.
5. Hasanboyeva O. U. va boshqa Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.